



Huquq ustunligi va huquqiy targ'ibot

Axundjanova Muxabbat Lazizovna

Toshkent shahar yuridik texnikum

"Maxsus fanlar" kafedrası o'qituvchisi

Annotasiya: O'z oldiga huquqiy demokratik davlat qurishni maqsad qilgan O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab davlat va jamiyat hayotida huquq ustuvorligini ta'minlash bo'icha bir qator ishlar amalga oshirildi. huquq Huquq ustuvorligi har bir shaxsning Konstitutsiyada va qonunlarda belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklarini to'g'ridan-to'g'ri, mustaqil amalga oshirishlaridir. Mazkur ishda Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash bo'yicha va uning nazorati bo'yicha davlatimizda amalga oshirilayotgan ishlar va ularning huquqiy mexanizmlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, huquq, huquq ustuvorligi, qonun ustuvorligi, demokratik davlat, huquqiy madaniyat.

Kirish

Butun dunyo miqyosida, ayniqsa xalqaro tashkilotlar, rivojlangan mamlakatlarda, hozirda Huquq ustuvorligi tushunchasining ko'p qo'llanilib kelinayotganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu maqolada Huquq ustuvorligi tushunchasi, Huquq ustuvorligi holatini baholash, dolzarb muammolarni yechimini topish, insonlarni katta-kichik adolatsizliklardan



himoya qilish va asosiy huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish xususida so'z yuritiladi.

Huquq - ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, qonun hujjatlarida ifodalangan adolat va erkinlik g'oyalariga asoslangan me'yoriy qoidalar tizimidir.

Huquq ustuvorligi - bu davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari chiqarayotgan normativ hujjatlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning xatti-harakatlari faqat va faqat Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq bo'lishi shart, deganidir. Zero Konstitutsiya va qonunlar jamiyat hayotining barcha sohalarini qamram oladigan eng muhim huquqiy hujjatlar ekanligidan kelib chiqilsa, huquq ustuvorligini ta'minlash jarayonida ularni o'rganish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda huquq ustuvorligini qonun ustuvorligidan farqlash lozim.

Hech kim qonundan ustun bo'lmaydi. Har qanday shaxs martabasi va holatidan qat'iy nazar qirollik (davlat) qonunlariga bo'ysunishi shart va sud oldida javobgar bo'ladi.

Huquq ustuvorligi atamasi ko'plab xalqaro hujjatlarda uchrashi mumkin, ammo unga normativ ta'rif berilmagan. Ba'zilar huquq ustuvorligini ilmiy doktrina, ya'ni olimlarning ilmiy qarashlari mahsuli sifatida qaraydilar. Albatta, bu to'g'ri fikr. Lekin, huquq ustuvorligini prinsip deb hisoblaydiganlar ham mavjud. Zero, bu huquq ustuvorligi tushunchasi olimlar tomonidan ilgari surilib, tadqiq etilib doktrinaga aylangan va keyinchalik mazkur tushuncha xalqaro va milliy hujjatlarda aks etib, unga davlat hokimiyatini amalga oshirishning prinsiplaridan biriga aynlangan. Huquq ustuvorligi to'g'risida ilk g'oyalar qadimgi yunon va o'rta asr mutafakkirlarining qarashlari bilan bog'liq. Dastlab qirolliklarda qirol ilohiy huquqlarga ega bo'lganligi uchun u davlat qonunlaridan ustun deb hisoblashgan.

Huquq ustuvorligi - bu bir xil darajada ijro qilinadigan, mustaqil sudlar tomonidan ishni ko'rishda tayaniladigan, ommaviy e'lon qilinadigan, inson huquqlari sohasida xalqaro



standartlar va normalar talablariga muvofiq keluvchi qonunlarga barcha shaxslar, davlat va xususiy muassasalar hamda tashkilotlar, shu jumladan, davlatning o'zi ham rioya qiladi va ayni paytda qonunning ustunligi, qonun oldida hammaning tengligi, qonun oldida javobgarligi, qonunlarni qo'llashda adolat, davlat hokimiyati vakolatlarining taqsimlanishi, qarorlar qabul qilishda xalqning ishtiroki, qonunlarning tushunarligi, hokimiyat vakolatlarini suistemol etishdan tiyilish, huquqiy va protsessual shaffoflik singari prinsiplarni ta'minlashga qaratilgan choralarning ko'rilishini talab etadigan boshqaruv tizimidir.

Mamlakatni fuqarolik jamiyati yo'lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasi mamlakat yoshlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining yuksaklik darajasiga bog'liq. Mamlakatimizda hamma sohalarda olib borilayotgan islohotlarning mazmunini tushunish, ushbu jarayonda faol ishtirok etish, yoshlarning huquqiy madaniyati yuqori bo'lishini taqozo etmoqda. Buning dolzarbligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoev huquqiy madaniyatning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi: "...qonun ustuvorligini ta'minlashda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi"[1] - deya ta'kidlaydi.

Huquqiy madaniyat haqida fikr yuritar ekanmiz avvalo unga berilgan tariflarni keltirib otamiz. Huquqiy madaniyatning falsafiy tahlili bilan shug'ullangan olim D.Q.Adilova quyidagicha mulohaza bildiradi: "...huquqiy madaniyat - bu ob'ektning yuridik tayyorgarligi darajasi va uning o'z siyosiy, iqtisodiy va madaniy huquq hamda erkinliklarini amalga oshirishdir. Ob'ektning huquqiy madaniyatining mezoni nafaqat uning yuridik va huquqiy normalarni bilishi, balki jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotida faol ishtirok etishi hamdir"[2]. O'zbek huquqshunos olimlaridan professor X.Odilqoriev: "Aslida, huquqiy madaniyat o'z mohiyat e'tibori bilan insonning siyosiy va huquqiy jihatdan ijtimoiylashuvi (sotsializatsiyasi) natijasidir. Bunda insonning ijtimoiy tajribasi, bilim va



ko'nikmalari to'laligicha namoyon bo'ladi. Inson o'z manfaat va ehtiyojlarini qondirishga qay darajada qobil, ayni vaqtda, jamiyat manfaatlarini taminlashga qanchalik samarali hissa qo'sha oladi, degan savollarga javob ko'p jihatdan uning ichki ma'naviyati, e'tiqodi va huquqiy madaniyatiga bog'liq. Shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi uning jamiyat huquqiy hayoti va amaliyotiga faol daxldorlik holatini ko'rsatadi. Mazkur daxldorlik darajasi shaxs huquqiy bilimlarni qadam-baqadam o'zlashtirib borgani sayin o'sib boradi va uning huquqiy me'yorlariga ongli, ixtiyoriy rioya etish saviyasi orqali namoyon bo'ladi"[3], - deb ta'riflaydi. Rus olimi A.P.Semitiko huquqiy madaniyat tarkibiga nafaqat huquqiy ong balki uning rivojlanish darajasini ham kiritadi: "huquqiy madaniyat mazmuniga shunchaki qonuniylik, huquqiy ong emas, balki, ularning rivojlanish darajasi ham kiradi. Shuningdek, aholi huquqiy ongining yuksakligi, ya'ni aholi huquqdan qay darajada xabardorligi, huquqiy qadriyatlarni qay darajada o'zlashtirganligi, huquqiy faoliyatning qanchalik rivojlanganligi, jamiyat a'zolarining huquqi mustahkamlangan qonun hujjatlarining mukammalligi ham huquqiy madaniyat mazmuniga mansub bo'ladi"[4]. Quyidagi fikrlardan kelib chiqib quyidagicha ta'rif berish mumkin.

Huquqiy madaniyat shaxsning ijtimoiy, huquqiy va siyosiy institutlar ta'sirida, milliy qadriyatlar asosida huquqiy va siyosiy ijtimoiylashuvi hamda o'z huquq va burchlari to'g'risidagi shaxsiy huquqiy ong, huquqiy bilim va huquqiy xulq-atvorining amaldagi ifodasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: -T.: "O'zbekiston", 2023-y.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. -T.: "O'zbekiston". 2018. 3-tom.



3. Azizxo'jayev A.A. va boshq. Konstitutsiyaviy huquq (izohli lug'at).-T.: Akademiya, 2001.
4. Odilqoriyev X.T, Muxammedov O'.X., Saidov B.A. Konstitutsiyaviy huquq. - Toshkent: Adolat, 2014.
5. АрпаНОВСКАа Е.В. праВОВаа культура и обеспечение праВ личности. — М.:HayKa, 2012. — 12-15 с.
6. Internet manbasi: <https://worldiusticeproiect.org/jW^Y>